

**BUXGALTERIYA BALANSI VA MOLIYAVIY TAHLIL,
MOLIYA BOZORIDAGI O'RNI VA BOSHQARUV**

*Bank-Moliya Akademiyasi magistranti
Toshpulatov Quvondiq Haqnazarovich
E-mail: kuvondiktoshpulatov@gmail.com
Tel: +998-91-955-55-51*

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxgalteriya balansi va moliyaviy tahlil hamda moliya bozordagi o'rni va boshqaruv jarayoni haqida, moliyaviy hisobot va tahlilda statistik metodlar, prinsiplar haqida qisqacha ma'lumot berilgan. Moliyaviy hisobot berish buxgalteriya hisobining yakuniy bosqichidir. Moliyaviy hisobotda buxgalteriya ob'ektlarini ularning iqtisodiy tarkibiga mos keladigan turlari bo'yicha kengaytirilgan guruhlanishi tufayli korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi mavjud. Moliyaviy tahlil jarayonida bir qator maxsus usullar qo'llaniladi. Tadqiqotning maqsadi korxona moliyaviy hisobotlarini tahlil qilishning uzlusizligi va ketma-ketligini, usullarini o'rganish va shu asosda xulosalar, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobotlar, uzlusizlik, ketma-ketlik, usul, moliyaviy tahlil, moliyaviy natija, iqtisodiy tahlil, moliyaviy natijalar.

Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish har doim katta ahamiyatga ega bo'lgan. Moliyaviy hisobotshakllariga kiritilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish korxona samaradorligini aniqlashga imkon beradi. Moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tahlil qilishning dolzarbliji moliyaviy tahlil natijalari korxonaning moliyaviy holati ko'rsatkichlarini, shu jumladan uning moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyatini aniqlashga, faoliyatning ma'lum bir nuqtasida ham, dinamikada ham mulkiy holatini baholashga imkon berishi bilan asoslanadi. Moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish, qoida tariqasida, moliyaviy xususiyatga ega bo'lgan va tashkilotning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish holati va samaradorligini baholash, shuningdek uning faoliyatini optimallashtirish yoki unda ishtirok etish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mo'ljallangan tahliliy ma'lumotlar to'plamidir[1].

Moliyaviy hisob-kitoblarni tahlil qilishda statistik metodlar va yordam:

Tahlil Metodlari Moliyaviy hisob-kitoblarni tahlil qilishda iste'mol qilingan statistik metodlar, ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish jarayonlarini aniqlashda yordam beradi.

Statistika Asoslar Statistika asoslarining tushunchalari va ularni hisob-kitoblarni tahlil qilishda qanday qo'llashni o'rganish mukammalroq tahlil natijalariga yo'l qo'yadi.

Statistika Datalari Statistika dаталарини то‘plash, тahlil qилиш ва natijalarni tushuntirish jarayonlarini tahlil qилишда juda muhimdir. Bu, to‘g‘ri qaror qabul uchun muhimdir.

Statistika Dasturlari Moliyaviy hisob-kitoblarni tahlil qилишда foydalaniladigan statistika dasturlari, ularning xususiyatlari va ularni qanday ishlatalish haqida tushuntirish juda muhimdir.

Biznes samaradorligi (rentabelligi)ni oshirish masalasi bugungi iqtisodiy sharoitda eng asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Biznes samaradorligining oshib borishi o‘z navbatida davlat moliyaviy barqaroligi ta‘minlanishi bilan birga keskin raqobat sharoitida jahon bozorida mustahkam o‘rin egallashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda arzon kapital jalb qилиш va boshqa tomondan kapitalni samarali joylashtirish muhim omillardan biridir. Qo‘yilgan har ikkala vazifani ijobjiy hal qилишда moliya bozorining amal qилиш mexanizmi yordamga keladi. Aynan moliya bozori iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida amal qilishi zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarining bozordan chiqib ketishiga sabab bo‘ladi, kapital iste’molchisining o‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishga majbur qiladi, iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish imkonini beruvchi texnologik innovatsiyalarni doimiy qo‘llab-quvvatlaydi, investitsiya loyihibaridan eng samaralisini tanlashni shart qilib qo‘yadi. Moliya bozorida pul, kredit, qimmatli qog‘ozlar, valyutalar, sug‘urta polislari, pensiya jamg‘armalari, qimmatbaho metallar, hosilaviy moliyaviy instrumentlar va boshqalar maxsus tovar sifatida muomalada bo‘ladi. Bunda tijorat banklari, birjalar, jamg‘arma institutlari, jamoaviy investitsiyalash kompaniyalari va boshqalar asosiy vositachilar sifatida ko‘zga tashlanadi. Moliya bozorida kapitalga bo‘lgan talab va taklif asosida vositachilar yordamida kapitalni kreditor va qarz oluvchi o‘rtasida qayta taqsimlash mexanizmi amal qiladi. Shundan kelib chiqqan holda amaliyotda pul mablag‘lari oqimini haqiqiy egasidan qarz oluvchiga va aksincha yo‘naltiruvchi moliya-kredit institutlari faoliyati tashkil etiladi. Moliya bozorining asosiy funksiyasi bo‘sh pul mablag‘larini ssuda kapitaliga aylantirishda ham namoyon bo‘ladi. Tashkiliy nuqtai nazardan moliya bozoriga moliyaviy instrumentlar emissiyasi, xaridi va savdosini amalga oshiruvchi iqtisodiy subyektlar, moliya institutlari jamlanmasi sifatida ham qaralishi mumkin. Har bir moliya instituti moliyaviy instrumentlarning aniq bir to‘plami bilan u yoki bu operatsiyani amalga oshirish bo‘yicha aniq vakolatga egaligini alohida ta‘kidlash lozim[2].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarini boshqarishda moliyaviy va boshqaruv tahlilining roli keskin oshmoqda, chunki boshqaruv tizimida oldingi ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechilib yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanmoqda. Sobiq ittifoq davrida tahlil asosan reja ko‘rsatkichlarini asoslashga, uning bajarilishini ta‘minlashga qaratilgan edi. Endilikda esa har bir xo‘jalik sub’ekti, mulk shaklidan qat’iy nazar o‘z faoliyatini yuqoridan

berilgan ibuyruqni bajarishga qaratmasdan, balki mustaqil ravishda o’zining iqtisodiy qudratini takomillashtirish maqsadida erkin boshqarishga qaratadi. Bu esa o’z navbatida iqtisodiy tahlilning rolini yanada oshiradi. Iqtisodiy tahlil orqali har bir sub’ektda mavjud bo’lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan ob’ektning faoliyatini zaruriyatga qarab o‘zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Yangi xo‘jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja bu korxonani keljakda rivojlanishini ta’minlaydigan qarordir. Korxonalarining xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida korxonada qabul qilingan biznes rejalarining asoslanganligi tekshiriladi, rejada ko‘zda tutilmagan imkoniyatlar aniqlanadi. Moliyaviy va boshqaruv tahlili rejalarashtirish darajasini talab darajasiga ko‘taradi, uni yana ham ilmiy asoslanganlik darajasini ta’minlaydi. Shuning uchun ham rejalarashtirish bilan tahlil o’rtasidagi bog’liqlik aniq ko‘rinib turadi. Biznes reja tuzish korxona faoliyatining tahlili bilan boshlanadi va yakunlanadi. Biznes rejaning aniq va puxta ishlab chiqilishi korxonalarining iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratib beradi. Tabiat va jamiyatdagi voqelikni o’rganuvchi va ularning tadqiq qilish ob’ekti deb qarovchi alohida fanning o’zi amal qiladigan tamoyillari mavjud bo’ladi. Tamoyillar o’rganiladigan ob’ektni bir butunligi, realligi va voqeligini tavsiflaydi. Bu tamoyillarning xalqaro va milliy hisob andozalari asosida quyidagi shakllarni aytib o’tish mumkin[3].

Moliyaviy va boshqaruv tahlili fanining tamoyillari

Tamoyillar	Mazmuni
1	2
Tizilmalilik	Tahlil etilayotgan ob’ekt alohida bir butun tizilma yoki tizilmaning elementi deb qaratadi.
Ishonchlilik	Olingan ma’lumotlarda xato yo’qligi va haqqoniy ekanligi, realligi
Taqqoslanuvchanlik	Ko’rsatkichlar taqqoslanuvchanliga, ularning bir asosli tarzda turli davrlar va boshqa korxonalar faoliyati to’g’risidagi huddi shunday ma’lumotlar bilan qiyosiy o’rganish
Betaraflilik	Axborot foydalanuvchilarning bir guruhining zarari hisobiga boshqa guruhlar manfaatlarining qondirishning o’rinsizligi
Davriylik	Olingan ma’lumotlarning davriy oralig’i, xo‘jalik faoliyati to’g’risidagi ma’lumotlar bilan vaqt bilan ta’minlab turish
Pulli baholash	Barcha aktivlar, kapital va majburiyatlarning so’mda ifoda etilishi
Hisobga olish	Daromad va harajatlarning yuzaga chiqish vaqt, o’rni va markazlari bo’yicha hisobga olinishi
Mazmunning shakldan ustunligi	Ma’lumotlarning hisob va hisobotdagi huquqiy shaklda uning mohiyati va iqtisodiy voqeligi bo’yicha hisobga olishdagi ifodasini ustunligi
Aniq baholash	Aktivlar va foydaning joriy davr bozor narxlarida qayta ifodalanishi
Uzlucksizlik	Korxona xo‘jalik faoliyati yuzasidan barcha jarayonlarni o’z yakuniga qadar hisobda o’zlucksiz aks ettirilishi
Boshqa tamoyillar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TAHLIL QILISHDA UZLUKSIZLIK VA KETMAKETLIK” Бабаджанов Абдирашид Мусаевич
2. Moliya bozori. Darslik / Iqtisodiyot fanlari doktori S.Elmirzayev
3. A.V.Vohobov, A.T.Ibrohimov, N.F.Ishonqulov MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI
4. Suyunovich, Mukhitdinov Khudoyar, and Norqobilova Feruza Abdihamidovna. “Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region.” Journal of Pharmaceutical Negative Results (2022): 345-352.
5. Norqobilova.F.A. “XIZMAT KO’RSATISH TARMOQLARINI MODELLASHTIRISHDA TIZIMLI TAHLIL QILISH, SINTEZLASH VA OPTIMALLASHTIRISH.” International journal of conference series on education and social sciences (Online). Vol. 1. No. 2. 2021.
6. Abdihamidovna, Norqobilova Feruza. “Financial Services to the Residents of the Region in the Field of Crafts.” International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 1 (2021): 225-230.
7. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti talabasi Tangriyev Abdurahmon, “Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes jarayonlarining boshqarishning marketing strategiyasi”.